

## **Davlat interaktiv xizmatlarining Yagona portali orqali «Tadbirkorlik sub'yektlari ehtiyojlari uchun maxalliy avtoransport vositalarini sotib olish uchun elektron ariza topshirish» xizmatini ko'rsatish reglamenti**

### **Xizmat tafsifi (pasporti)**

#### **1.1. Xizmat nomi**

Davlat interaktiv xizmatlarining Yagona portali (keyingi o'rinlarda -Yagona portal) orqali «Tadbirkorlik sub'yektlari ehtiyojlari uchun maxalliy avtoransport vositalarini sotib olish uchun elektron ariza topshirish».

#### **1.2. Xizmat natijasi**

Ushbu xizmatning natijasi tadbirkorlik sub'yektlari ehtiyojlari uchun avtoransport vositalarini sotib olishga shartnoma olish arizasini ro'yxatga olish hisoblanadi. Javob, Yagona portalda ro'yxatga olingan arizachi tomonidan ko'rsatilgan manzilga arizani qabul qilgan diler tomonidan jo'natiladi.

Xizmat ko'rsatuvchi organlar va blankalar olish joyi

Foydalanuvchilardan arizalar qabul qilish, "O'zavtosanoat" AKga qarashli quyidagi ishlab chiqarish-korxonalarining(keyingi o'rinlarda - Ishlab chiqaruvchilar) ichki bozor dilerlari tomonidan qabul qilinadi.

- "Samarqand Avtomobil Zavodi" MCHJ;
- "GM O'zbekiston" AJ;
- "JV MAN Auto-Uzbekistan" MCHJ QK

Ushbu xizmatni ko'rsatishda, maxsus blankalardan foydalanilmaydi. Foydalanuvchi ariza jo'natishda Yagona portalga joylashtirilgan elektron ko'rinishdagi ariza shaklini to'ldiradi.

Ariza rasmiylashtirish:

#### **1. Shaxsan borish orqali:**

Quyidagi tashkilotlarning devonxonasiga

- "O'zavtosanoat" AK

%

"Samarqand Avtomobil Zavodi" MCHJ;

- "GM O'zbekiston" AJ;

- “JV MAN Auto-Uzbekistan” MCHJ QK Dilerlik markazlariga “O‘zavtosanoat” AK yoki Ishlab chiqaruvchilar bilan amaldagi shartnomalarga ega regional dilerlarning sotuv bo‘limiga.

2. Ro‘yxatdan avtotransport vositasining rusumi va regional dilerni tanlash imkoniyati, arizaning elektron shakli maydonchasini to‘ldirish yo‘li bilan, Davlat interaktiv xizmati Yagona portali orqali elektron ko‘rinishda.

### **1.3. Huquqiy asoslar**

- “O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati organlari va boshqarmalarida ish yuritish va bajarish nazoratini tashkil qilish bo‘yicha Normativ hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 29 martdagi №140-sonli Qarori;

- “Aksizli mahsulotlarning ayrim turlarini ishlab chiqarish va sotishni hisobga olish tizimi haqidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot Vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki Boshqaruvining 2004 yil 26 iyuldagi №1390-sonli Qarori.

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 15 apreldagi “Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish va davlat xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq, tartiblarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi №PQ-2164-sonli Qarori.

### **1.4. Xizmatdan foydalanuvchilar**

Yagona portalda ro‘yxatdan o‘tgan barcha tadbirkorlik sub'yektlari.

### **1.5. Bajarish muddati**

Ariza ma'lumotlari Yagona portalning ma'lumotlar bazasiga kelib tushadi, qabul qilingan ariza haqidagi xabarnoma, arizachi tomonidan tanlangan regional diler kabinetiga yo‘naltiriladi. Ariza nusxasi, tegishli diler tomonidan ko‘rib chiqish va Ishlab chiqaruvchilar bilan kelishishning borishini monitoring qilish va nazorat olib borish uchun “O‘zavtosanoat” AK ga yo‘naltiriladi.

Ishlab chiqaruvchi korxonalar dilerlarining mas‘ul xodimlari 5 kun davomida arizani o‘rganib chiqadi va quyidagilarni bajaradi:

“Samarqand Avtomobil Zavodi” MCHJ va “JV MAN Auto-Uzbekistan” MCHJ QK mahsulotlariga ariza berilganda:

- Omborda ariza berilgan standart komplektatsiyadagi rusumning kerakli miqdori bor bo‘lsa, dilerning mas‘ul xodimi arizachining shaxsiy kabinetiga, oldi-sotdi shartnomasini rasmiylashtirish uchun dilerlik markaziga tashrif buyurish sanasini ko‘rsatgan holda javob yo‘llaydi;

- Omborda so‘ralgan rusum, komplektatsiya yoki avtotransportning talab qilingan miqdori bo‘lmasa agar, avtotransportning tayyor bo‘lishi va yetkazilishi kutilayotgan sanani ko‘rsatib, rozilik to‘g‘risida so‘rovnomanini qo‘shgan holda arizachiga tegishli xabarnoma jo‘natadi. Avtotransport vositasini yetkazib berish muddatiga arizachi tomonidan rozilik bildirilsa (so‘rovga tasdiq javobi berilsa), dilerning mas‘ul xodimi rozilik haqida xabarnomani olgandan so‘ng bir ish kuni davomida, dilerlik markaziga tashrif buyurish sanasini ko‘rsatgan holda arizachiga javob yo‘llaydi;

- Agar arizachiga maxsuslashtirilgan modifikatsiyadagi avtotransportni sotib olish zarur bo‘lsa, ariza shaklining avtotransport rusumi modifikatsiyasi ko‘rsatilgan joyga tegishli belgi qo‘yadi, o‘sha asosida 45 kun davomida xabarnoma olgandan keyin, dilerning mas‘ul xodimi, Yagona portalda arizachining kabinetiga jo‘natib texnik topshiriqnomani kelishishi shart. Texnik topshiriqнома tasdiqlangandan so‘ng diler, oldi-sotdi shartnomasini rasmiylashtirish uchun kilish sanasini ko‘rsatib javob yo‘llaydi.

- 

- **Oldi-sotdi shartnomalarida ko‘rsatilgan muddatga muvofiq “GM Uzbekistan” AJ mahsulotlariga**

- “Samarqand avtomobil zavodi” MCHJ mahsulotlarida-120-270 bank kunigacha (transport vositasining tuzilishidan kelib chiqqan holda xaridor tomonidan oldindan to‘lovni amalga oshirgan kundan shuningdek omborxonada tayyor mahsulot yoki ehtiyot qismlar mavjudligidan kelib chiqib)

### 1.7. Yetkazib berish muddatini tasdiqlash

To'g'ri to'ldirilgan ariza Yagona portal orqali dilerlik korxonasi ga yetkaziladi. Dilerlik korxonasi xodimlari tomonidan ariza qabul qilingani tasdiqlangandan keyin tizim ariza beruvchini SMS orqali bu haqda xabardor qiladi. SMS orqali xabar berish bir kun (24 soat) davomida amalga oshiriladi.

## **2. Xizmatdan foydalanuvchini xabardor qilish**

### 2.1. To'liq ma'lumot berish

“Yagona davlat interaktiv xizmatlar portal orqali tadbirkorlik sub'ektlari ehtiyoji uchun mahalliy transport vositalariga ega bo'lish uchun ariza berish” xizmati haqida ma'lumot berish my.gov.uz. orqali amalga oshiriladi.

Dilerlik korxonalarini ro'yxati va ular haqidagi ma'lumot (joylashgan o'rni, ish vaqti) shuningdek transport vositalarining texnik tasnifi hamda rusumlari haqidagi ma'lumotlarni rasmiy veb-saytdan yoki telefon orqali olish mumkin.

- «O'zavtosanoat» AK - [www.uzavtosanoat.uz](http://www.uzavtosanoat.uz). (+99871) 140-76-50
- “GM Uzbekistan” AJ - [www.chevrolet.uz](http://www.chevrolet.uz). (+99871)141 -77-77
- «JV MAN Auto-Uzbekistan» qo'shma korxonasi - [www'man-mn.uz](http://www'man-mn.uz). (+99871) 148-80-80
- «Samarqand avtomobil zavodi» MCHJ- [www.samauto.uz](http://www.samauto.uz). (+99871) 140-80-00

### 2.2. So'rov bo'yicha ma'lumot berish


Mazkur xizmat Yagona davlat interaktiv xizmatlar portal orqali electron ravishda maxsus forma to'ldirilgandan keyin murojaat qilish imkoniyatini taqdim etadi.

### 2.3. Xizmat ko'rsatish joyi haqida ma'lumot berish

Hududy diler tanlangandan keyin mazkur dilerlik korxonasi (dilerlik korxonasi joylashgan manzil, telefon raqami) haqida to'liq ma'lumotlar taqdim etiladi.

### 2.4. Foydalaniladigan hujjatlar formasi

## Davlat interaktiv xizmatlarining Yagona portali orqali «Tadbirkorlik sub'yektlari ehtiyojlari uchun maxalliy avtotransport vositalarini sotib olish uchun elektron ariza topshirish» (SamAuto va MAN Auto Uzbekistan)



## Davlat interaktiv xizmatlarining Yagona portali orqali «Tadbirkorlik sub'yektlari ehtiyojlari uchun maxalliy avtotransport vositalarini sotib olish uchun elektron ariza topshirish» (GM Uzbekistan)

